XORIJIY DAVLATLAR BANK TIZIMINING BARQARORLIGI TAJRIBASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tursunboyeva Go'zal Ortiq qizi
O'zbekiston Respublikasi
Bank-Moliya Akademiyasi magistranti.
gozaltursunboyeva799@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22255653

Annotatsiya. Maqolada turli mamlakatlarning pul-kredit siyosati, bank faoliyatini nazorat qiluvchi tartibga solish tizimlari hamda moliyaviy inqirozlarga nisbatan qo'llaniladigan chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi. Xalqaro amaliyotni chuqur o'rganish natijasida O'zbekiston bank sektori uchun samarali yondashuvlar va mustahkamlikni ta'minlashga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar shakllantiriladi. Mazkur tadqiqot bank tizimining raqobat salohiyatini rivojlantirish va iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.
Kalit so'zlar: tijorat banklari aktivlari, kapitallashtirish darajasi, likvidlilik, kapital bazasi, Bazel qo'mitasi, bank tizimi barqarorligi.

EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES' BANKING SYSTEM STABILITY AND ITS DISTINCTIVE FEATURES

Abstract. This article examines the monetary and credit policies of various countries, regulatory frameworks governing banking activities, as well as measures implemented in response to financial crises. Based on an in-depth study of international practice, effective approaches and practical recommendations aimed at ensuring stability are developed for the Uzbekistan banking sector. This research holds significant theoretical and practical importance in developing the competitive potential of the banking system and strengthening economic independence.
Keywords: commercial bank assets, capitalization level, liquidity, capital base, Basel Committee, banking system stability.

Kirish

Jahon mamlakatlari bank tizimi global iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy hamkorlikning negizini tashkil etuvchi eng muhim tarkibiy qismlardan biri sanaladi. Ushbu tizimning samarali ishlashi yolg'iz milliy iqtisodiyotlar taraqqiyotiga emas, balki xalqaro moliyaviy bozorlarning izchil va barqaror rivojlanishiga ham bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda, bank tizimining barqarorligi xalqaro maydonda strategik muhim masalaga aylanib, u bir qator iqtisodiy, siyosiy va texnologik sharoitlar majmui bilan shakllanadi.

Bank tizimi barqarorligini ta'minlash davlatlar va moliyaviy institutlar o'rtasida yaxlit va samarali hamkorlik mexanizmlarini joriy etishni zarur qiladi. Xalqaro Valyuta Fondi (XVF), Jahon banki va boshqa nufuzli xalqaro moliyaviy tuzilmalar global bank tizimining poydevorini mustahkamlashda alohida o'rin egallaydi. Ularning asosiy vazifasi — davlatlar moliya tizimlari uchun yagona standartlar va me'yoriy qoidalar ishlab chiqish, shuningdek, moliyaviy tanglik va inqirozlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashdan iborat. Shu nuqtai nazardan, xalqaro amaliyot bank sohasida barqarorlikka erishishning bebaho tajriba manbai bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, har bir davlatning bank tizimi o'ziga xos tafovutlarga ega ekanligi e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Mazkur farqlar davlatning iqtisodiy tuzilishi, huquqiy

bazasi, siyosiy muhiti va texnologik taraqqiyot sur'atlariga ko'ra belgilanadi. Xususan, taraqqiy etgan davlatlar bank tizimlari zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikka erishgan bo'lsa, rivojlanish yo'lidagi mamlakatlarda bu jarayon moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi va siyosiy beqarorlik omillari ta'sirida ko'plab to'siqlar bilan kechmoqda.

Xalqaro tajribalarning umumiy qonuniyatlarini va o'ziga xos jihatlarini sinchiklab tahlil qilish barqaror bank tizimini shakllantirishning eng maqbul va samarali modellarini aniqlashga zamin yaratadi. Shu sababdan, mazkur mavzu yolg'iz nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham muhim ilmiy-tadqiqot yo'nalishi sifatida baholanadi.

Metodologiya: Ilmiy tadqiqot jarayonida metodologik yondashuvlarning to‘g‘ri tanlanishi tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Shu bilan birga, bank va moliyaviy xizmatlarga oid normativ-huquqiy hujjatlar ham ko‘rib chiqildi. Xalqaro standartlar va milliy qonunchilikdagi chakana bank xizmatlari bilan bog‘liq talablarga oid ma’lumotlar to‘plandi. Bu yondashuv mavzu dolzarbligini yanada kengroq yoritish va mavjud tajribalarni ilmiy tahlil qilish imkonini berdi.

Nazariy asoslar mustahkamlanganidan so‘ng, amaliy yondashuvlar asosida ma’lumotlar yig‘ildi va tahlil qilindi. Amaliy tadqiqot jarayonida asosan statistik va iqtisodiy tahlil usullari qo‘llanildi.

Birinchi navbatda, statistik tahlil usuli yordamida chakana bank xizmatlarining tijorat banklari samaradorligiga ta’sirini aks ettiruvchi asosiy ko‘rsatkichlar yig‘ildi. Bu ko‘rsatkichlar banklarning moliyaviy hisobotlari, statistika boshqarmalari va boshqa rasmiy manbalardan olindi. Statistik tahlil natijasida chakana xizmatlarning bank samaradorligi bilan o‘zaro bog‘liqligi aniqlanib, ularning iqtisodiy foydaliligi baholandi.

Jamlab olingan ma'lumotlar statistik usullar va qiyosiy tahlil metodologiyasi asosida o'rganilib, bank tizimi barqarorligiga bevosita yoki bilvosita ta'sir etuvchi hal qiluvchi omillarni aniqlab olishga qaratildi. Tadqiqot davomida xulosalar chiqarishda empirik dalillar va real ko'rsatkichlarga tayanuvchi ilmiy yondashuv ustuvor sifatida qo'llanildi.

Adabiyotlar sharhi.

Xalqaro bank tizimining barqarorligini tadqiq etish iqtisodiy jihatlar bilan birga moliyaviy va ijtimoiy omillarni ham qamrab oluvchi keng qamrovli yondashuvni talab qiladi. Bu sohadagi ko'plab ilmiy izlanishlar bank tizimi mustahkamligini belgilovchi asosiy omillarni aniqlashga yo'naltirilgan.

Stiglitz, Greenwald va Mishkin kabi taniqli iqtisodchilar bank tizimi barqarorligida moliyaviy tartibga solish va nazorat mexanizmlarining hal qiluvchi ahamiyatini alohida ta'kidlagan. Stiglitz va Greenwald moliyaviy siyosatning moslashuvchan bo'lishi zarurligini asoslab, tartibga soluvchi organlar qarorlarida iqtisodiy vaziyatni atroflicha tahlil qilish muhimligini ko'rsatgan. Mishkin esa markaziy banklarning inflyatsiyani jilovlash siyosati va foiz stavkalari o'zgarishining bank barqarorligiga ta'siri masalasini chuqur o'rgangan.

Diamond va Dybvig o'z ilmiy ishlarida banklarni likvidlik inqirozlaridan himoya qiluvchi mexanizmlarni rivojlantirish zarurligini asoslab bergan. Ular depozit sug'urtasi tizimi va davlat kafolatlarining bank barqarorligidagi o'rnini alohida ko'rsatib, bu vositalar banklarga likvidlik muammolarini o'z vaqtida bartaraf etish imkonini berishini isbotlagan.

Tobbin va Wolff tadqiqotlarida global moliyaviy institutlarning xalqaro bank tizimi barqarorligidagi roli muhim o'rin egallaydi. Tobbin valyuta bozorlarida spekulyativ operatsiyalarga qarshi tartibga solish mexanizmlarini joriy etishni taklif qilgan bo'lsa, Wolff xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish zarurligini asoslab bergan. Reinhart va Rogoff esa bank inqirozlarining tarixiy saboqlarini tahlil qilib, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan iqtisodiy siyosatning o'zaro bog'liqligini inobatga olish lozimligini qayd etgan.

Shunday qilib, xalqaro bank tizimi barqarorligini ta'minlash masalasi moliyaviy tartibga solish, xalqaro hamkorlik, iqtisodiy siyosat va institutsional islohotlarning bir-biriga chambarchas bog'liqligiga asoslanadi.

Tahlil va Natijalar

Bazel Qo'mitasining bosh maqsadi turli davlatlar nazorat standartlarini uyg'unlashtirish va xalqaro hamkorlikni yanada samarali yo'lga qo'yishdan iborat. Hozirda Qo'mita faoliyati uch yo'nalishda olib borilmoqda: bank nazoratiga doir milliy usullar va ma'lumotlar almashinuvi; xalqaro bank nazorati samaradorligini yuksaltirish; kapital yetarliligi bo'yicha minimal standartlarni ishlab chiqish va boshqa parametrlarni tadqiq etish.

Bank nazoratining asosiy tamoyillari 1997-yilda «Samarali bank nazoratining asosiy tamoyillari» nomli hujjatda mustahkamlangan bo'lib, u 2006-yilda yangilangan. Ushbu hujjatga muvofiq, moliyaviy barqarorlikni ushlab turish bank nazoratining muhim vositalaridan biri sanaladi. Qo'mita oldida kapital talablarini yagona me'yorga keltirish, raqobat muhitidagi tengsizliklarni bartaraf etish va bank tizimi barqarorligini ta'minlash vazifalari turgan. Bu vazifalar doirasida 1988-yil iyulda kapital yetarliligini belgilash tizimi ishlab chiqilib, yirik o'nta davlat markaziy banklari rahbarlari tomonidan tasdiqlandi.

Mazkur tizimga ko'ra, bank kapitali birinchi va ikkinchi darajali kapitallarga ajratilib, aktivlar esa risklilik darajasiga qarab besh toifaga tasniflanadi. «Bazel I» deb nom olgan ushbu talablar barcha davlatlardan 1992-yil oxirigacha kapitalning minimal darajasini 8 foizga yetkazishni talab etgan.

Bazel Qo'mitasi qoidalari o'zgarmas emas, balki vaqt o'tishi bilan doimiy takomillashib boradi. 2004-yil oktyabrda «Bazel II» standarti e'lon qilindi. Ushbu standart uch muhim yo'nalishni qamrab oladi: kredit va operatsion risklarni baholash hamda tijorat banklarining bozor intizomiga rioya etishini ta'minlash. Qo'mita mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, bank kapitali operatsion riskka nisbatan 12–20 foizni tashkil etadi va bu ko'rsatkich so'nggi o'ttiz yil mobaynida doimiy o'sib kelmoqda.[1]

«Bazel II» ning asosiy maqsadi xalqaro bank tizimining ishonchliligini mustahkamlash, xalqaro bozorda faoliyat yurituvchi banklar o'rtasidagi raqobat tengsizligini bartaraf etish hamda kapital yetarliligini baholashning samarali metodologiyasini yaratishdan iborat. Ushbu kelishuv banklarda bozor tamoyillariga asoslangan risk boshqaruvini kuchaytirish va nazorat tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.[2]

«Bazel II» uch asosiy komponentdan tashkil topadi. Birinchi komponent kapitalning minimal talablarini hisoblashni o'z ichiga olib, kredit riskini standartlashgan va ichki reytingga asoslangan yondashuvlar orqali baholash, operatsion va bozor risklarini tahlil qilishni nazarda tutadi. Ikkinchi komponent risklarni baholashning ichki tizimini nazorat qilishni ta'minlab, bank boshqaruvi mavjud risklarni kapital to'liq qoplashini kafolatlashi zarurligini belgilaydi. Uchinchi komponent hisobot shaffofligini oshirish orqali banklarni bozor intizomiga rioya etishga undaydi.

Shunday qilib, birinchi komponent kapital talablarining amaliy samaradorligini oshirsa, ikkinchi va uchinchi komponentlar kapital nazoratida innovatsion yechimlarni joriy etishga yo'naltirilgan. Ushbu uchlik tizim banklarning umumiy ishonchliligi va barqarorligini ta'minlashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. «Bazel II» tijorat banklarining moliyaviy mustahkamligini reyting bahosi asosida ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi.

Shunisi xarakterliki, «Bazel II» standartida tijorat banklariga nisbatan talablarning ikki varianti mavjud bo‘lib, milliy Markaziy banklar o‘z vakolatlari doirasida ulardan faqat bittasini qo‘llashi mumkin (1-jadval)

[1] Nickson S., Banking focus: The new Basel Accord, www.bis.org

[2] Международные конвергенция измерения капитала и стандартов капитала: Уточненные рамочные подходы// Банк международных расчетов. -июнь 2004. –С.7

1-jadval

Bazel-II standarti bo'yicha tijorat banklariga nisbatan belgilangan talablarning birinchi variant[3]

Suveren kredit reytingi	AAA- AA-	A+ A-	VVV+ VVV-	VV+ V-	V- Dan past	Reytingsiz
Riskning og'irlik darajasi	20%	50%	100%	100%	150%	100%

Bazel-II standarti bo'yicha tijorat banklariga qo'yilgan talablarning birinchi variantida ushbu mamlakatda ro'yxatga olingan barcha tijorat banklar mamlakatga berilgan suveren kredit reytingidan bir toifaga past bo'lgan riskning og'irlik koeffitsiyentini oladi. Agar reyting V darajadan past bo'lsa, ushbu holatda 150 foizli risk darajasi belgilanadi (2-jadval).

2-jadval

Bazel-II standarti bo'yicha tijorat banklariga nisbatan belgilangan talablarning ikkinchi variant[4]

Suveren kredit reytingi	AAA- AA-	A+ A-	VVV+ VVV-	VV+ V-	V- Dan past	Reytingsiz
Riskning og'irlik darajasi	20%	50%	100%	100%	150%	100%
Qisqa muddatli talablar bo'yicha og'irlik koeffitsenti	20%	20%	20%	50%	150%	20%

«Bazel II» standarti doirasida tijorat banklariga nisbatan belgilangan talablarning muqobil variantida risk og'irlik koeffitsienti bevosita bankning xalqaro kredit reytingiga bog'liq holda belgilanadi. Bundan tashqari, muddati uch oydan oshmagan qisqa muddatli majburiyatlar uchun imtiyozli og'irlik koeffitsienti nazarda tutilgan. Ushbu yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, tijorat banklari bir vaqtning o'zida ikkita ko'rsatkich — o'z kredit reytingi va ro'yxatdan o'tgan davlatning suveren kredit reytingi asosida risk og'irlik koeffitsientini belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa banklar o'rtasida mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli tafovutlarning yuzaga kelishiga olib keladi.

«Bazel II» standartida kredit riskini o'lchash va baholashning yangilangan metodologiyasi taqdim etilgan bo'lib, u «standartlashgan yondashuv» deb yuritiladi. Mazkur metodologiya tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskini ancha kamaytirish imkonini beradi. Buning sababi shundaki, ushbu usulda bank tomonidan ajratilgan kreditning risk darajasi qarz oluvchi mijozning mavjud kredit reytingiga asoslanib aniqlanadi.(3-jadval)

3-jadval

Bazel-II standarti bo'yicha tijorat banklariga nisbatan belgilangan talablarning ikkinchi variant[5]

Kredit reytingi	AAA- AA-	A+ A-	VVV+ VV-	V- Dan past	Reytingsiz

[3] Международные конвергенция измерения капитала и стандартов капитала: Уточненные рамочные подходы// Банк международных расчетов. -июнь 2004. –С.23.

[4] Международные конвергенция измерения капитала и стандартов капитала: Уточненные рамочные подходы// Банк международных расчетов. -июнь 2004. –С.23

[5] Международные конвергенция измерения капитала и стандартов капитала: Уточненные рамочные подходы// Банк международных расчетов. -июнь 2004. –С.24

Riskning og'rirlik koeffitsenti	20%	50%	100%	150%	100%

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, qarz oluvchi mijozning kredit reytingi yuqori bo'lgan sari unga ajratilgan kreditning risk ko'rsatkichi past bo'ladi. «Bazel II» bank aktivlarini sekyuritizatsiya qilish mexanizmi orqali risklarni qoplash uchun zarur regulyativ kapital talablarini belgilash metodologiyasini tartibga soladi.

Operatsion risklarni qoplash uchun kerakli kapital miqdorini hisoblashda quyidagi uch usuldan birini qo'llash mumkin. Birinchisi — bazaviy indikativ yondashuv bo'lib, unda kapital talabi uch yillik yalpi daromadlarning o'rtacha foizi asosida hisoblanadi. Ikkinchisi — standartlashgan yondashuv bo'lib, kapital talabi sakkizta alohida biznes yo'nalishlari kesimida taqsimlab aniqlanadi. Uchinchisi — takomillashgan yondashuv bo'lib, operatsion risklarni hisoblashda ichki mezonlar tizimidagi sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslaniladi.

Bazel qo'mitasi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlarini tahlil qilib, bir qator davlatlarning nazorat tizimlari takomillashtirishni talab etishini rasman tan oldi. Qo'mitaning bu boradagi asosiy takliflari quyidagilarni o'z ichiga oladi: kapital va likvidlilik bo'yicha ehtiyotkorlik talablarini bosqichma-bosqich kuchaytirish va likvidlilik riskini boshqarish amaliyotini yangilash; balans va balansdan tashqari operatsiyalar bo'yicha bank faoliyatining shaffofligini ta'minlash; bozor konyunkturasi o'zgarishiga nisbatan sezgir bo'lgan likvid bo'lmagan aktivlarni baholash mezonlarini qayta ko'rib chiqish; nazorat organlarining risklarga chidamlilik va inqirozni boshqarish tizimiga o'tishga to'liq tayyor bo'lishini ta'minlash.

Moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlarini bartaraf etish maqsadida Xalqaro hisob-kitoblar banki qoshidagi Bazel qo'mitasi 2010-yil 12-sentyabrda «Bazel III» talablarini rasman e'lon qildi va ularni dekabr oyida tasdiqladi. Ushbu yangi talablarni ishlab chiqqan mutaxassislar fikricha, «Bazel III» ning kuchaytirirlgan me'yorlari kelajakda moliyaviy inqirozlarning takrorlanishi ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi. Yangi tartibga solish talablarini ishlab chiqish bosqichidayoq 27 mamlakatning markaziy banklari va moliyaviy nazorat organlari rahbarlari uni qo'llab-quvvatladi.

«Bazel III» talablari Yevropa davlatlarida 2013-yildan joriy etila boshlangan bo'lib, ushbu jarayon 2018-yilgacha davom etdi. Mazkur davr banklarga yangi talablar doirasida faoliyatni bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish uchun tayyorgarlik muddati sifatida belgilandi va Bazel qo'mitasi ushbu jarayonni izchil nazorat qilib bordi.

«Bazel III» ning asosiy talablari «Bazel II» doirasidagi kapital hisob-kitobi hamda kapital va likvidlilik bo'yicha ehtiyotkorlik talablariga kiritilgan muhim o'zgartirishlar bilan belgilanadi. Bundan tashqari, «Bazel III» bank tizimining barqarorligini yanada mustahkamlash maqsadida ikkita qo'shimcha kapital buferi — konservatsion va kontrsiklik buferlarni joriy etadi. [6](4-jadval).

4-jadval

Bank kapitaliga talablar[7], foizda (bosqichma-bosqich joriy qilinadi)

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Ustav kapital koeffitsienti	3,5	4	4,5	4,5	4,5	4,5	4,5	4,5
Muzlatilgan zaxira	-	-	-	0,625	1,25	1,875	2,5	2,5
Ustav kapital va	3,5	4,0	4,5	5,125	5,75	6,375	7,0	7,0

[6] https://www.bis.org/


[7] https://www.bis.org/

muzlatilgan zaxira								
1 darajali kapital	4,5	5,5	6,0	6,0	6,0	6,0	6,0	6,0
Regulyativ kapital	8,0	8,0	8,0	8,0	8,0	8,0	8,0	8,0
Regulyativ kapital va muzlatilgan zaxira	8,0	8,0	8,0	8,625	9,25	9,875	10,5	10,5

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2024-yilga borib, tijorat banklari umumiy kapitalining yetarliligiga qo'yilgan talab 10,5 foizga yetadi. Konservatsion bufer 2019-yilda to'liq hajmda — risk bilan og'irlashtirilgan aktivlarning 2,5 foizi miqdorida — joriy etilgan bo'lib, u faqat birinchi darajali umumiy kapital (CET1) hisobidan shakllantirilishi lozim. 2025 va 2026-yillarda mazkur ko'rsatkichlar o'zgarmagan holda saqlanmoqda, chunki asosiy kapital talablarining bosqichma-bosqich joriy etilishi 2019-yilda yakunlangan. Biroq «Bazel III Yakuniy islohotlari» doirasidagi chiqish pol (output floor) ko'rsatkichi bosqichma-bosqich oshirib borilmoqda: 2025-yilda 65 foiz, 2026-yilda 70 foizni tashkil etib, 2027-yilda yakuniy 72,5 foiz darajasiga yetishi rejalashtirilgan.

«Bazel III» standartida tijorat banklarining birinchi darajali kapitalini himoyaviy konservatsiya buferining miqdorini birinchi darajali kapitalga nisbatan belgilanishi banklarning birinchi darajali kapital hajmini oshirishda muhim o'rin tutadi. Chunki tijorat banklarining birinchi darajali kapitali moliyaviy inqirozlar paytida ular uchun «himoya yostig'i» vazifasini bajarishi kerak. Shuning uchun ham Bazel qo'mitasi ekspertlari tijorat banklarining birinchi darajali kapitalini faqat barqaror moliyalashtirish manbalaridan tashkil etishni tavsiya qilgan.

Navbatda, biz G‘arbiy Yevropa mamlakatlari bank tizimlari rentabellik darajasini tahlil qilishga harakat qilamiz. Banklar faoliyatining samaradorligini baholash uchun eng avvalo, aktivlar rentabellik darajasi («ROA») tahlil qilinadi. Ushbu ko‘rsatkichni tahlil qilish uchun Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya hamda Yevrozona mamlakatlari «ROA» o‘rtacha ko‘rsatkichlari ma’lumotlaridan foydalaniladi (1-rasm).



Mamlakat	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025*
Buyuk Britaniya	5,50	6,34	5,62	6,83	7,02	6,75	6,90
Germaniya	4,73	5,45	5,61	5,94	5,98	6,33	6,48
Fransiya	5,20	5,81	5,28	5,79	5,94	6,59	6,72
Italiya	5,38	5,40	5,88	6,18	6,49	6,63	6,78

1-rasm.G'arbiy Yevropa mamlakatlari bank aktivlari rentabillik (ROA) darajasi o'zgarish dinamikasi[8], foizda

Tahlil qilingan davr ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida aktivlar rentabellik darajasi 1 foizdan past bo'lgan. Ayniqsa, Italiyada ushbu ko'rsatkich 2019–2025-yillarda faqat manfiy bo'lmagan, balki barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan.

2025-yilning ikkinchi choragida EU/EEA banklarining aktivlar rentabelligi (ROA) 0,75 foizga незначительно oshgan bo'lib, sof foiz margini esa 1,58 foizni tashkil etgan. Birinchi chorakda esa ROA 0,73 foiz darajasida barqaror saqlanib, sof foiz margini 1,6 foizni tashkil etgan.


2025-yil yakunlari bo'yicha barcha to'rtta mamlakatda ijobiy o'sish kuzatildi. 2025-yilning to'rtinchi choragida yig'ma kapital rentabelligi (ROE) 9,53 foizni tashkil etib, mamlakatlar bo'yicha eng past ko'rsatkich Germaniyada qayd etildi. Buyuk Britaniya banklari 2025-yilda ham yetakchi mavqeini saqlab, Barclays, HSBC, Lloyds va NatWest aksiyadorlari yil davomida o'rtacha 38 foizlik umumiy daromad ko'rishdi.

Germaniya banklari rentabelligi esa sekinroq o'sdi — bu mamlakat iqtisodiyotidagi strukturaviy muammolar va sanoat ishlab chiqarishining pasayishi bilan bog'liq. Fransiya va Italiya banklari 2025-yilda kapital bazasini mustahkamlab, rentabellikni oshirdi.

Umuman olganda, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida banklarning risklilik darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Uni samarali boshqarish jarayonida banklarda turli moliyaviy qiyinchiliklar vujudga kelgani kuzatiladi. Aktivlar tarkibida ishlamaydigan va yomon aktivlarning salmog‘i yuqori bo‘lib, bu holat ushbu mamlakatlarning bank tizimi barqarorligini ta’minlash nuqtai nazaridan salbiy omil hisoblanadi.

Bank tizimi aktivlari rentabellik darajasi bilan bir qatorda bank kapitali rentabellik darajasini ham o‘rganish zarur. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ushbu ko‘rsatkich quyidagicha ko‘rinishga ega. Bank tizimi barqarorligini belgilovchi indikatorlar sifatida bank aktivlari, kreditlari va aholi omonatlarining mamlakat YaIMga nisbati orqali baho berish mumkinligi yuzasidan ilgari ham to‘xtalib o‘tgan edik. Shu bois, navbatda ushbu indikatorlarning Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va Italiya kabi rivojlangan davlatlardagi ko‘rsatkichlarini tahlil qilishni davom ettiramiz (2-rasm).

[8] www.worldbank.org интернет сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.



Mamlakat	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025*
Buyuk Britaniya	516,2	454,7	540,0	458,1	562,1	487,3	503,5
Germaniya	300,3	268,2	267,4	252,6	244,5	248,4	255,2
Fransiya	375,7	385,1	367,0	356,9	343,8	344,1	351,8
Italiya	218,2	209,9	247,5	237,8	223,8	226,3	231,4

2-rasm.Bank aktivlarining YaIMga nisbati[9], foizda.

Ushbu rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Buyuk Britaniyada yalpi aktivlarning YaIMga nisbati 500 foizdan yuqori bo'lib, bu haqiqatdan ham Londondagi moliya markazining dunyo moliyaviy tizimida katta o'ringa ega ekanligini va bu mamlakat yalpi aktivlarining mamlakat YaIMdan bir necha barobar yuqori ekanligini tasdiqlaydi. 2025-yil yakuniga kelib, EU kredit institutlarining umumiy aktivlari 2024-yildagi 32,97 trillion evrodan 33,50 trillion evroga — ya'ni 1,6 foizga — oshdi.

Shu bilan birga, rasmdagi boshqa davlatlarda ham ushbu ko'rsatkich 200 foizdan kam emas. Germaniyada 2025-yilda ko'rsatkich 255,2 foizga yetdi — bu 2022-2023-yillardagi pasayishdan keyin barqarorlik tomon qaytishni ko'rsatadi. Fransiya va Italiyada ham 2025-yilda o'sish tendensiyasi kuzatildi. Shu sababli, bank aktivlarining YaIM nisbatini bank barqarorligi va bank xizmatlarining rivojlanganligini baholashda eng muhim ko'rsatkichlardan biri sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, ushbu ko‘rsatkichga yaqin bo‘lgan yalpi kreditlar hajmi ham muhimdir. Bank tomonidan kredit resurslari ajratilishi, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash va mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini ta’minlash maqsadida yalpi kreditlarning mamlakat YaIMga nisbati alohida o‘rganilishi lozim bo‘lgan indikatorlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro bank tizimi barqarorligini ta'minlash masalasi global moliyaviy tizimning mustahkamligi va milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Har bir davlat o'z iqtisodiy realliklarini, moliya bozorlarining holatini va xalqaro me'yoriy talablarni inobatga olgan holda moslashuvchan va samarali strategiyalar shakllantirishga intilishi lozim. Bu borada tartibga solish tizimini takomillashtirish, moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlash va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanadi.

[9] www.worldbank.org интернет сайти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

Mazkur mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar global moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan samarali chora-tadbirlarni aniqlash imkonini beradi. Xalqaro amaliyotni chuqur o'rganish va uning o'ziga xos qonuniyatlarini tahlil etish nafaqat nazariy bilim doirasini kengaytiradi, balki davlatlarning real iqtisodiy siyosati uchun ham muhim amaliy asos bo'lib xizmat qiladi va davlatlararo moliyaviy hamkorlikning mustahkam zaminini yaratadi. Bu jarayon xalqaro moliyaviy beqarorliklarning oldini olish hamda barqaror va izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlashda uzviy va muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Berger A. N., Herring R.J. (1995), The role of capital in financial institutions, 'Journal of Banking and Finance' 19, pp. 393-430.
2. Pagano, M. and P. Volpin (2010). 'Credit ratings failures and policy options', Economic Policy, 62, 401-431.
3. Bolton, P., X. Freixas and J. Shapiro (2012). 'The credit ratings game', Journal of Finance, 67(1), 85-112.
4. Ратникова Т.А (2006.) Введение в эконометрический анализ панельных данных // Экономический журнал Высшей школы экономики. Т. 10, № 2. С. 267–316.
5. Philip Davis, E. (2009), «Financial stability in the United Kingdom: Banking and Prudence», OECD Economics Department Working Papers, #717, OECD Publishing, Paris (3)
6. Rick Bookstaber, Jill Cetina, Greg Feldberg, Mark Flood, and Paul Glasserman. Stress Tests to Promote Financial Stability: Assessing Progress and Looking to the Future. Office of Financial Research. Working Paper # 0010, 2013.
7. Stiglitz, J. E., Greenwald, B. Financial Market Imperfections and Macroeconomic Performance. Oxford University Press, 2003.
8. Mishkin, F. S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. Pearson Education, 2019.
9. Reinhart, C. M., Rogoff, K. S. This Time Is Different: Eight Centuries of Financial Folly. Princeton University Press, 2009.
10. Diamond, D. W., Dybvig, P. H. Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity. Journal of Political Economy, 91(3), 401–419, 1983.